

**G'aznachilik sohasiga oid terminlarning til ob'yektiv sifatida**

**Hakimova Zamira Xurram qizi**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi**

**Tel: +99894-461-99-88**

**zamirahakimova866@gmail.com**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada terminologiya sohasida g'aznachilikka oid terminlar paydo bo'lishi, xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *termin, g'aznachilik, iqtisodiyot, byudjet, moliya, aksiya, valyuta*

Insoniyat evolyutsiyasining avvalida ham iqtisod tushunchasining mohiyati mavjud bo'lgani hech kimga sir emas albatta. Ammo u birmuncha soddarоq shaklda bo'lган. Masalan odamlar gapirishni ham, biron nima qurishni ham hali o'rganmagan vaqtlarida ham hamisha yenish-ichish, ya'ni iste'mol masalasi mavjud bo'lган. Keyinchalik kiyinshga o'tilgani insoniyat ehtiyojining oshishiga olib kelgan. Avvaliga hamma zaruriy ehtiyojlar o'zidan qondirilgach, vaqt o'tgani sari buning imkonи qiyinlashdi. Va ayrboshlash jarayoni boshlandi. Bunda biror qabila yoki urug' hayvon terilari, oziq-ovqatlar, uy hayvonlari va mehnat qurollarini boshqa urug' yoki qabila bilan ayrboshlaganlar. Bu jarayon insoniyat bilan birgalikda asrlar osha rivojlanib, taraqqiyashib bordi va bugungi kunga kelib iqtisodiyot deb ataldi. "Iqtisodiyot" so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "xo'jalik", "ta'limot", ya'ni qishloq xo'jaligi ta'limoti degan ma'noni anglatadi. Qisqa qilib aytganda, iqtisodiyot cheklangan resurlar bilan cheklanmagan ehtiyojlarni qondirishdir. Bu uning eng sodda ta'rifidir. Kengroq miqyosda olganda, iqtisod bu inson ehtiyojlarini qondirish evaziga uning hayotini, yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan har qanday harakat deb tushunilsa ham maqsadga muvofiq bo'lardi. Uning asosiy elementi esa-resursdir. Iqtisodiyotni o'rganuvchi fan iqtisodiyot nazariyasi deb ataldi. Bugungi kun iqtisodiyot tizimi qadimgi shaklidan ancha farq qiladi. U murakkablashgan. Hozirgi davrda iqtisodiyot fanining mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot kabi turlari bor. Bunda ob'ektning ko'lami tufayli shunday turga ajratilgan. Ya'ni nisbatan mayda xo'jalik sub'yeqtleri, korxonalar va tashkilotlarning faoliyatlarini o'rganuvchi qismi mikroiqtisodiyot deyiladi. Davlat miqyosidagi iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyot fani esa makroiqtisodiyot deyiladi. Bunday masalalarga mamlakatning iqtisodiy o'sishi, inflatsiya darajasi, ishsizlik, yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelish darajalari va shunga o'xshash masalalar o'rganiladi. Mamlakat miqyosidagi iqtisodni boshqarishda iqtisodning g'aznachilik tarmog'i katta ahamiyatga egadir. G'azna davlat byudjetini maqsadli taqsimlash va unumli foydalanish uchun muhim bo'lgan tashkiliy tuzilmadir. Davlat byudjetiga pul asosan soliqlar orqali to'planadi va bu pullar



mamlakatning rivoji, xalqning farovon yashashi uchun tarmoqlarga taqsimlab chiqiladi. Taqsimlangan mablag'ni kerakli nuqtaga yetkazish esa davlat byudjetining g'azna ijrosiga yuklatiladi. Qisqa qilib aytganda davlat g'aznasi,-davlatning "kassir"sidir. Davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tilishi, mamlakatning ma'lum iqtisodiy barqarorlikka yetganini bildiradi. Davlat byudjeti mamlakatning asosiy boyligi hisoblanib, uning sarfi muhim hisoblanar va mamlakat moliya jarayonining "yuragi" sanalar ekan, g'azna ijrosining to'g'ri yuritilishi davlat ishi darajasidagi muhim ishdir. Korxonalar g'azna ijrosi esa o'sha tashkilotning mablag'larini boshqarishni ko'zda tutadi. G'aznachilik menejmenti firmaning to'lovlarini, investitsiya va moliyalashtirish faoliyatini o'z ichiga oladi. Bu faoliyat kattaroq firmalarda obligatsiyalar, aksiyalar va valyutalar bilan ishlashni hamda ular bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy risklarni boshqarishni ham o'z ichiga oladi. Tashkilotlarda, xususan barcha banklarda g'aznachilik bo'limi ish yuritadi. Korxona va firmalarda (banklardan tashqari) g'aznachilik boshqaruvi va naqd pul boshqaruvi atamalari bir xil ma'noni anglatadi va almashinib ishlatiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib qarasak, Amerika Qo'shma Shtatlarida g'aznachilik tizimi Federal g'aznachilik deb atalib, u davlat iqtisodiyotidagi asosiy bo'g'in hisoblanib, davlatning muhim moliyaviy funksiyasini boshqaradi. Bojxona va soliq tizimi ham g'aznachilik tarmog'ining bir qismi hisoblanadi. G'aznachilik AQShda qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni nazorat qilish, auksionlarga ularni joylashtirish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Buyuk Britaniyada ham g'aznachilik muhim tarmoq hisoblanib u quyidagi vazifalarni bajaradi: davlat mablag'ini guruhlangan xarajatlarga taqsimlash, oylik moliyaviy rejalar ishlab chiqish, moliyaviy oqimni boshqarish,

Yaponiya iqtisodiyotida moliya vazirligi juda muhim o'rinn tutadi. G'aznachilik tarmog'i esa moliya vazirligining tarkibida bo'lib, u moliyaviy rejalarini tuzadi, miliy bankidagi to'lanishi lozim to'lovlarini va tushumlarni nazorat qiladi.

Avstraliyada ham davlat byudjeti, uni ijro etish tushumlarni maqsadli taqsimlash va yuritish ishlarini moliya departamenti va g'aznachilik departamentlari o'zaro aloqada bo'lgan holatda birga yuritadilar.

O'zbekiston mustaqil mamlakat, hamda ona tilimlid davlat tili maqomidagi til. Shunday ekan iqtiodiyot, moliya va g'aznachilik sohadagi terminologiyani o'rganish, terminlar yaratish, mavjudlarini tadqiq etish ham mustaqil mamlakat iqtisodiyoti uchun, ham davlat tilining maqomini saqlash uchun tilshunoslik oldida turgan dolzarb masaladir. O'zbek tilida iqtisodiyot terminologiyasi ustida N.Mamatov, X.Jamolxonov, N.Qosimov, Sh.Abduraxmonov, U.Tursunov singari bir qator olimlar o'zlarining ilmiy



ishlarida atroficha o'rgangan esalarda, bu hali ham oxirigicha tadqiq etilmagan soha bo'lib turibdi. O'zbekistonda terminlarni tadqiq etish o'tgan asrning 20-yillarida boshlangan. 1984-yilda esa O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Prezidumi huzurida Respublika muassasalararo terminologik komissiya (RMTK) tashkil topgan. "O'zbek tili terminolgiyasi" nomli byulleten ham aynan RMTK tomonidan nashr etila boshlangan.

O'zbek moliya terminologiyasi kelib chiqishiga nazar soladigan bo'lsak, tilshunos N.Husanov buni 3 davrga bo'ladi:

Birinchisi yigirmanchi asr boshlarigacha bo'lgan davr;  
Ikkinchisi o'tgan asrning 20-90 yillardagi tadqiqot davri;  
Va uchinchisi mustaqilidkan keyingi davrdir<sup>1</sup>

Birinchi davr haqida to'xtalsak, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati turk" asari boshlab bergen jarayonni Alisher Navoiy, Ogahiy, Y.H.Hojib, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiyy, Shayx Sulaymon Buxoriy singari adiblar davom ettirganlar. Ya'ni ularning asarlarida qadimgi turkiy tildagi iqtisodiyotga oid atamalarning keng foydalanilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xususan Navoiy o'z asarlarida yuzlab iqtisodiy terminlardan o'z va ko'chma ma'nolarida foydalangan. Shuningdek Navoiy turkiy tildagi atamadan foydalanibgina qolmay, uning arab va fors tillaridagi sinonimlarini ham keltirib o'tganlar.

Ikkinchi davrda rus tili orqali o'zlashgan terminlar qatori muhim rol o'yaydi. Shu davrdacha o'zbek tili arab va fors tillari hisobiga boyigan bo'lsa, endilikda bu o'rinni rus tili egallagan edi. Rus tiliga esa iqtisodiy atamalar asosan ingliz va fransuz tillaridan o'zlashgan. Shu tariqa o'zbek tiliga kirib kelgan. o'sha paytda o'zlashgan ba'zi terminlar bugungi kungacha fonetik o'zgarishga uchragan bo'lsa, ayrimlari o'zgarishsiz iste'molda qolmoqda. Masalan: Bulanka-blanka, veksil-veksel lar o'zgarishga uchragan bo'lsa, kassir, makler hozirgacha o'zgarishsiz qolgan. U davrda endi o'zlashgan so'zlarning aksari shundayligicha, qanday eshitilsa shunday foydalanilar edi: *padaxodniy nalog, kredit, kommirschiski, sbirigatelni daftar* va hokazo. Keyin esa ularni o'zbek tilidagi muqobillariga alishtirish boshlandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ushbu jarayonni tezlashtirib yubordi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.O'lmasov, A.Vahobov "Iqtisodiyot nazariyasi" Toshkent 2014
2. D.H.Po'latov, B.I.Nurmuhamedova "G'aznachilik" Toshkent 2014
3. N.Husanov "Iqtisodiy atamalar va ish yuritish" Toshkent 2005

